


Ma'lumot va axborot



Siz **ma'lumot** deganda nimani tushunasiz? **Axborot** deganda-chi? Ma'lumotlarni yozib olishning qanday usullarini eslay olasiz?

Kundalik hayotda biz tez-tez **ma'lumot** va **axborot** so'zlarini ishlatib turamiz. Bu so'zlar bir-biriga o'xshash, lekin turli ma'nolarga ega.

Ma'lumot sonlar, qiymatlar va belgilardir. Har bir ma'lumot alohida olinganda ma'no anglatmaydi.


Axborot qayta ishlangan ma'lumotlar bo'lib, inson ulardan xulosa chiqaradi yoki yangi bilimga ega bo'ladi.



axborot



ma'lumot



Men hammadan ko'p ball to'pladim va tanlovda g'olib bo'ldim!



1. Qaysi qatorlarda ma'lumot, qaysilarida esa axborot yozilganligini aniqlang:


- 4, 8, 19;
- $2 + 2 = 4$;
- chizg'ich, qalam;
- chizma chizish uchun chizg'ich va qalamdan foydalanish kerak.



2. Rasmda informatika xonasida o'quvchilarning joylashish sxemasi (yuqoridan ko'rinishi) berilgan. Ushbu sxemada qaysi ma'lumotlar ko'rsatilgan? Rasm orqali qanday axborot olish mumkin?

Rasmga qarab:

- xonadagi bolalar sonini;
- kim kim bilan o'tirganligini;
- xonadagi stol va stullar soni nechta ekanligini ayta olasizmi?





3. Ma'lumotlar to'plamidan foydalanib, hosil qilingan axborotni o'z ichiga olgan biror ma'noga ega gap tuzing.

sentabr – 30 kun
oktabr – 31 kun
noyabr – 30 kun

Nargiza – 9 yosh
Rustam – 10 yosh
Javlon – 12 yosh

un – 17 kg
guruch – 21 kg
grechixa – 15 kg



4. Olimpiadada har bir topshiriq 1 balldan 5 ballgacha baholandi. So'ng barcha ballar qo'shilib, umumiy natija olindi. Umida ballar yozilgan jadvalni sinfdoshlariga topshirishi kerak edi, ammo u tasodifan jadval ustiga bo'yoq to'kib yubordi. Umida jadvaldagi ma'lumotlarni tiklay oladimi?

o'rin	ishtirokchi	1-t.	2-t.	3-t.	4-t.	5-t.	ballar yig'indisi
I	Madina	5	4	3	5	4	
II	Akmal	2	4	4			
III	Umida	4	4	3	3		19



5. Savollarga javob bering.

- Ma'lumot axborotdan nimasi bilan farq qiladi?
- Ma'lumotlarning qanday turlarini bilasiz?
- Kundalik hayotda ma'lumotlarga qayerlarda duch kelish mumkin? Misollar keltiring.

